

YOSHLAR TARBIYASIDA OILANING RO'LI

Suyumova Marhabo Sherzod qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi

marhabosuyumova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyada oilaning ro'li nechog'lik kattaligi yoritilgan. Har bir oilaning farzandi bu O'zbekistonning farzandidir, shuning uchun ularni yaxshi xulqli va tarbiyali qilib tarbiyalash hammamizning oldimizdagi eng oliy burchimizdir. Bolalarga e'tiborli bo'lish, ularga vaqt ajratish ota-onalarimizning eng oliy vazifasi. Mana shu yosh avlod yurtimizni gullab-yashnashi uchun hissa qo'shishga ishonamiz.

Kalit so'zlar: tarbiya, farzand, mehr-muhabbat, ustoz-murabbiylar, Ota-ona, oila;

Abstract: This article covers the size of the family's role in upbringing. The child of every family is a child of Uzbekistan, so raising them to be good-natured and well-mannered is our highest duty to all of us. It is the highest task of our parents to be attentive to children, to devote time to them. We believe that this young generation will contribute to the prosperity of our country.

Keywords: upbringing, Child, Love, teacher-coaches, parents, family;

Har bir jamiyatning gullab-yashnashi, xalqlarning farovonligi bevosita ta'lim va tarbiyaga borib taqaladi. Inson jamiyatda moddiy boyliklari bilan emas, balki o'zining yuksak ma'naviyati, go'zal tarbiyasi, hamma uchun ibratli xulqi bilan joy egallaydi. Bunday fazilat egalari bo'lish uchun oila a'zolarimiz, yoshi ulug' bobo-buvilarimiz, ota-onalarimizning ro'li juda ham kattadir. Hammamizga ma'lumki oila jamiyatimiz tayanchi. Mana shu oila degan kichik dargohdan kelajak avlod tarbiyalana boshlaydi. Har bir oilada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa mana shu oilaning mahallasi, jamiyati farovon bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lishi bu uning ota-onasiga bog'liq. Har qanday vaziyatda otaona o'zini tuta bilishi va qo'ldan kelgancha oliyanob fazilatlarini namoyon eta olishi kerak. Har bir farzand birinchi tarbiyani mana shu kichik dargohdan oladi. Yosh avlodni tarbiyalashda oiladagi muhit katta ahamiyatga ega. Mana shu muhit bolalar ma'naviyati, tassavvuri, e'tiqodi, dunyoqarashini shakllanishida ro'l o'ynaydi. Vatanimizga muhabbat tuyg'ulari, yurtimizda hizmat qilish eng oliy burchlari, barcha-barchasi mana shu kichik dargoh oiladan boshlanadi. Vatanimizning tinch-totuv bilan bo'lishi, yuksalishi, kelajak avlodga bog'liqdir. Shuning uchun Oila degan muqaddas dargohdan bolalarni vijdonli, Vatanga muhabbatli qilib tarbiyalash har bir ota-onaning oldidagi eng katta burchidir. Xalqimizda shunday maqol bor "bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" bundan ko'rinib

turibdi-ki biz uchun tarbiya qanchalik muhimligi. Har bir bolaga mahalla ahli, keksa-nuroniylarimiz, tarbiya berishga haqlidir.

Bilamiz-ki bugungi kunda qo'shtirnoq ichidagi oilalarda ota-onalarni "ommaviy axborot "vositalariga uzluksiz bog'lanib qolishi va farzandlariga vaqt ajrata olayotganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari ota-onalarning turli sabablar bilan ajralib ketishi bolalar tarbiyasida katta va kuchli ahamiyatga egadir. Xalqimiz yevropa davlatlariga chiqishi va u yerdan turli xil "ommaviy madaniyat "olib kirishi ham bolalar va yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularni qarovsiz qoldirilgani turli jinoyat va axloqsizliklarga olib kelingani kuzatilmoqda.

Sharq mutafakkirlari tarbiya haqida turli hikmatli so'zlar, maqol va matallar yozib qoldirgan. Ulardan Ibn Sino shunday ta'kidladi Axloqiy tarbiyada eng asosiysi bolaning g'ururiga nafsoniyatiga tegmagan holda ular bilan yakkama-yakka suhbat qurish va unga nasihat qilish kerak deb ta'kidlaydi. Shoir tarixshunos Munis Xorazmiy tilga erk bermaslikni maslahat beradi. So'z mulking sultoni Alisher Navoiy "Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi", deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat Har bir ona farzandini vujudidaligidayoq uning tarbiyasi, kelajagi haqida qayg'urishi lozim. Sharq mutafakkirlari odob-axloq, tarbiya haqida bir qator asarlar yozib qoldirgan ulardan olishimiz mumkin:

Ahmad Yugnakiyning "Hibbat-ul-Haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diy Sheroziyning "Guliston va Bo'ston", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", va "Mahbub-ul qulub" asarlarini pandnoma va nasihatnoma tarzda yozilgan asarlardir. Har bir insonni yuksalishiga, ma'naviyatli bo'lishiga eng katta foyda beruvchi bu kitobdir. Inson kitob o'qisa uning dunyoqarashi, fikrlashi, odob-axloqi, tarbiyasi shakllana boshlaydi. Shuning uchun farzand tarbiyasida kitob ham katta ahamiyatga egadir. Hozirgi yosh o'quvchilarga ko'proq badiiy kitob o'qishlarini tavsiya bergan bo'lardim. Chunki badiiy kitob insonni yaxshilikka yetaklaydi. Ulardan Abdulla Qodiriyning "Merobdan chayon", "O'tkan kunlar", Said Ahmadning "Ufq" romanlarini olishimiz mumkin. Bu asarlarda Vatanga muhabbat, Ota-ona qadri, millatparvarlik ulug'lanadi.

Bolaning tarbiyasida oilaning ulkan o'rni, chunki u bizning jamiyatimizning bu hujayrasida bo'lib, bolaning ko'pchiligidir. Bu erda inson sifatida shakllanmoqda. Bu erda u g'amho'rlik, mehr va muhabbat his qiladi. O'zaro tushunishni anglatadigan oilalarda va hurmat odatda yaxshi bolalarni rivojlantiradi. Ko'pchilik bolani tarbiyalashda, bolani oziqlantiradigan, toza kiyim kiyib, o'z vaqtida yotish uchun eng muhim narsa deb hisoblaydilar. Lekin bu noto'g'ri fikr. Ta'lim - juda ko'p energiya va energiya talab qiluvchi qiyin ish. Axir, ota-onalar farzandlarini tarbiyalash uchun so'zlarni emas, balki shaxsiy misolini ham anglatadi.

Uning hayotining dastlabki kunlaridan boshlab bola onaning va ota-onaning ta'sirini his qiladi. Bu bolalarni oilada tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Oilada farzandlarni tarbiyalash haqida gapirganda, ularning axloqi haqida unutmashimiz kerak. Bu nima? Hayotning dastlabki kunlaridan boshlab, hali gapirish va harakat qilish imkoniga ega bo'lmasa, bola oiladagi vaziyatni «baholaydi». Suhbatdagi xotirjamlik hissi, bir-biriga bo'lgan hurmat, bolaning axloqiy ehtiyojlarini yaxshilashga yordam beradi. Muntazam baqirish, qasam ichish, qo'pollik salbiy natijalarga olib keladi. Oila ichidagi axloqiy tarbiya quyidagilar bilan boshlanadi: jabr-zulm, mehribonlik va yovuzlikning namoyon bo'lishiga aralashmaslik. Bularning barchasidan, biz bolaning tarbiyasida oilaning roli juda katta ekanini ko'ramiz. Odamda oladigan birinchi bilim, xulq-atvor, odatlar, u bilan birga butun yillar davomida qoladi.

“Tarbiya bizlar un yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”. Abdulla Avloniy

Farzand - inson hayotining mazmuni, nasl nasabini davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar, farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham manan ham jismonan ulg'ayib shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahllik muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa ularning man'aviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Oila barkamol avlodni tarbiyalovchi maskan hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy, man'aviy, jihatdan tarbiyalash ayniqsa ona yurtga muhabbat istiqloqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhimdir.

Insonning shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishda, el yurt ichida izzat hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini singdirishda oilaning o'rni beqiyosligini bir so'z bn tariflash kamlik qiladi. Yoshlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashda masuliyatlilik vijdoniylik fidoiylik kabi fazilatlar har bir hatti xarakterda nomoyon bolishi bn yuksak manaviyatlilikini ko'rsatadi. Bunda ota-onaning o'zaro farzandlari bn yaqin do'stona munosabatda bolishi ularning kelajakdagi orzu maqsadlarini tushunib olishlari farzandlarining ham jismoniy ham man'aviy sog' salomat voyaga yetishlari un asos bo'ladi.

Farzand yaxshi xulq atvoriga va aql- farosatga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik teran anglaydi va ezgu ishlarini amalga oshiradi. Aksincha bolsa u bugungi kunda globallashib borayotgan tahlikalo zamonda yot g'oyalarga asir bo'lib, tog'ri yo'lni yoqotishi, qonunchilikni bilmasligi oqibatida jinoyat kovasiga kirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak dunyoga har bir inson bir keladi, lekin ular kelajakda o'zining tarbiyasi, xulqi, odobi bilan ajralib turadi. Har bir farzandning tarbiyasi bilan shug'ullanishi ota-onalarimiz, ustoz-murabbiylarimiz, va

mahallalarimizga chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi kunda murakkab va taxlikaliy davrda yashayotgan ekanmiz, shuning uchun farzand tarbiyasiga e‘tiborimizni kuchliroq qaratishimiz darkor. Zero kelajak-yoshlar qo‘lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Nishonova, G.Alimova "Bolalar psixologiyasi" Toshkent 2006-yil
2. H.B.Haydarova, Yosh avlod tarbiyasida oila manaviyatining o'rni
3. G'. Shoumarov "Oila psixologiyasi" Toshkent 2010-yil
4. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING O'RNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 139-141.
5. Ta'lim va tarbiya jarayonida oilaning o'rni (fayllar.org)
6. Tarbiya maktab darsligi 11-sinflar uchun
7. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq"